

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIM XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDiy  
MARKAZI**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH VA MAXSUS TA'LIM KAFEDRASI**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA  
RIVOJLANISHIDA PREDMETLI MUHITNING AHAMIYATI**

*(Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun uslubiy ko'rsatma)*

**Samarqand – 2020**

Z.Qarshiyeva – Samarqand VXTXQTUMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası assistenti «Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishida predmetli muhitning ahamiyati» (*Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun ko'rsatma*) Samarqand VXTXQTUMOHM, 2020-yil, 24 bet.

**Muharrir:** J.Eshquvvatov - SamDU huzuridagi XTXQTMOHM Ilg'or tajriba va xalqaro hamkorlik ilmiy-axborot tadqiqotlar bo'limi boshlig'i

**Taqrizchilar:** O.To'xtayev - Samarqand VXTXQTUMOHM maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası o'qutuvchisi

F.Qudratova – Samarqand shahar 18-MTT rahbari

Ushbu uslubiy ko'rsatmada maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi-predmetli o'yin muhitini yaratish, guruhlarda tashkil etiladigan burchaklar, loyihalar uchun ijodiy va innovatsion yondashuvlar mazmuni berilgan bo'lib, undan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilar foydalangan holda o'z mashg'ulotlarini tashkil etishlari mumkin.

*Uslubiy ko'rsatma hududiy markaz Ilmiy-uslubiy kengashining 2020 yil 26- iyuldagi 6/3-5-sonli yig'ilish qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.*

## KIRISH

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni har tomonlama rivojlanishida predmetli muhit asosiy omillardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar har bir yoshda o'zini o'rab turgan muxitdan aynan o'zini qiziqtirgan hayotiy malakani oladi. Muhit qanchalik toza va musaffo bo'lsa bolaning inson sifatida hakllanishida shunday toza va musaffo ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu jarayonning o'ziga xos qonuniyatlari mavjud. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarni to'laqonli rivojlantirishda kattalarning ular bilan mazmunli suhbatlari va bolalikning predmetli muhiti bilan boyitish zarur. Bu bolalikning predmetli muhiti hisoblanadi.

Shunday qilib, predmetli muhit, o'yinchoqlar, o'yin vositalari, moddiy resurslar, jihozlar, ko'rgazmali qurollar yordamida bolani aqliy, jismoniy, psixologik rivojlantirishga pedagogik ta'sir o'tkazishni anglatadi.

Bolani rivojlantiruvchi muhit mazmun-mohiyatiga ko'ra bolani aqliy, jismoniy va psixologik rivojlanishini ta'minlashi, takomillashtirishi, piravard natijada bolalikni rivojlantirishning predmetli muhitiga qo'yilgan pedagogik talab va maqsadni ro'yobga chiqarishi kerak. Predmetli muhitni pedagogik jarayonda muvoffaqiyatli qo'llanma uchun uning variativligini ta'minlash kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasining turiga qarab bolalikning rivojlantiruvchi muhitni barpo etish shart-sharoitlariga qarab, bolalarga ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xos, alohida, betakror, samarali imkoniyatlariga ega bo'lishi mumkin.

Bolaning ijodiy rivojlantirishda yangi ahhort texnologiyalarini, shu jumladan kompyuterlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Bu vositalar yordamida bolaga aqliy, ahloqiy, ma'rifiy ma'lumotlar o'yin va o'yin vositalari orqali kirib boradi.

Eng avvalo maktabgacha ta'lim muassasalarida rivojlantiruvchi muhitning izchilligi ta'minlanishi, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyati inobatga olingan va tayanch dastur talablarini sifatli va mazmunli bajarilishiga xizmat qilishi lozim.

Bugungi bolalar o'zining kundalik xayotida turli-tuman o'zgarishlarga duch keladilar. Dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar bolalarda muttasil o'qishga intilishni tarbiyalashni, o'zgarayotgan dunyoda zarur bo'ladigan qobiliyatlarni rivojlantirishni talab qiladi.

Agar bola muntazam tarzda foydali va qiziqarli ish bilan band bo'lsa, bu pedagogning yutug'idir. Faol, tashabbuskor bola o'zi mehribonlik, rag'bat bilan qamrab olingan samimiy maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada kamol topadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida barcha yaxshi narsalar bolalar uchun bo'lmog'i zarur.

Bollarning to'laqonli rivojlanishi faqat uning ichki dunyosi emas, balki unga keng imkoniyat va kattalar dunyosi kerak bo'ladi. SHu boisdan ham maktabgacha ta'lim muassasasida predmetli muhit bola harakatlanishi uchun barcha imkoniyatlar manbai bo'lmog'i zarur. Bolalar nima bilan shug'ullanishlarini esa o'zlari tanlab olishlari uchun muayyan vaqt ajratishlari lozim. Tanlash qiziquvchanlikni, muammolarni hal etishga, boshqalar bilan muomalada bo'lishga hamda oldinga qo'yilgan maqsadlarga mustaqil erishishga yordam beradi.

## **Guruhlarda ijodiy, rivojlantiruvchi muhitni yaratish – bu muvafaqqiyat garovidir**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalar uchun quvonch, shodlik taraqqatuvchi maskan bo'lishi lozim. Kichkintoylar bu erga hatto dam olish kunlari ham kelishga intilishi lozim. M.Montessori pedagogikasi asosida yaratilgan muhit bunga misol bo'la oladi. Yaxshi yaratilgan bunday psixologik muhitda bola o'zini o'z uyidek tutadi, mustaqillik va barcha muammolardan holi bo'ladi. Muassasada jazoga yo'l qo'yish mumkin emas. Bu erda asosiy narsa- bu bolalarning o'z yutuqlaridir. MTTda bolalar yaratilgan qulaylik natijasida bolalar sog'lom faoliyat yuritadilar. Imkon qadar har bir guruhda M.Montessori pedagogikasi asosida bolalar uchun ijodiy rivojlantiruvchi muhit yaratilishi lozim. Bunday muhitda kundalik ish faoliyati davomida bolalar o'zlarini erkin tutishlari, bir-biriga nisbatan hurmat, muhabbat, o'zaro yordam berish kabi insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi fikrlar vositasida hayotiy faollikka erishadilar va o'z qiziqishlari asosida taraqqiy etib boradilar. Ish faoliyati davomida turli tajribadan o'tkazilgan mualliflik uslublarini va texnologiyalarni qo'llash mumkin. Bolalarni taraqqiy etishiga yordam beradigan, ularni o'ylashga, ijod qilishga yordam beradigan barcha noyob narsalardan foydalaniladi. Rahbarlarning asosiy vazifasi-bolalar uchun qulay sharoit yaratib berishdir. Guruhlarda turli yoshdagi bolalar bolalar tarbiyalanishadi. Bu bolalarning imkoniyatlari turlicha, mijozlari turlicha, ularning orasida «alohida bolalar» ham bo'lishi mumkin. Kattalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar oiladagi munosabatlarga o'xshashi: kattalar kichiklarga yordam berishi, tajriba almashishi, kichiklar kattalardan o'rganishi lozim. Nima bilan shug'ullanishni esa muhitning o'zi yordam beradi. Bu muhit bolalarda u yoki bu mustaqil faoliyat bilan shug'ullanishni, turli-tuman ta'limiy o'yinlar va M.Montessori jihozlarini tanlash imkoniyatini yaratadi. Bola o'zini o'rab turgan atrof-olamni tahlil qiladi va uning atrofida ularni o'rganish uchun: munchoqlar, bankachalar, jadvallar, xumchalar va patnislar kabi turli tuman narsalardan foydalanadi.

Har bir bola erkin holda ko'ngli xohlagan narsalarni tanlashi, ular bilan xohlaganicha ishlashi mumkin. M.Montessori uslubiga ko'ra ijodiy rivojlantiruvchi muhit: maxsus jihozlangan xona, shakllangan bolalar guruhi, rivojlantiruvchi jihozlar, malakali tarbiyachidan iborat. Har bir burchak-mini- muhitni jihozlashda uning har bir mayda- chuydasi ham o'ylab chiqilishi va u bolaning har taraflama taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatishi lozim.

Har bir xonaning maydoni shartli ravishda quyidagi mini-muhitga ajratish mumkin. Ular:

- amaliyotda tajriba o'tkazish mini-muhiti;
- sensor rivojlanish mini-muhiti;
- nutq o'stirish, savod va o'qishga tayyorlash va o'rgatish mini- muhiti;
- matematika mini-muhiti;
- sahnalashtirish mini-muhiti;
- o'ynash mini-muhiti;
- ijodiy ustaxona mini-muhiti va boshqalar.

Hamma jihozlar bolaning yoshiga mos va olishiga qulay va ochiq joyda, patnislarda joylashgan bo'lishi, bola uni osonlikcha ko'ra olish va unda qiziqish uyg'otgan narsani tanlab olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Agar u birorta narsani birinchi marta olayotgan bo'lsa, bu narsa bilan tajriba o'tkazib ko'rishi yoki kattalarga yordam so'rab murojaat qilishi, bu nima va qanday qilib bu narsa yoki jihoz bilan nimalar qilish mumkinligini bilib olishi imkoniyatiga ega bo'lsin. Stol va stullar har bir bolaning yoshiga mos tanlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bolalarning o'zlari tashkiliy ishlarning qatnashchilari bo'lishi va xonani jihozlashlari mumkin. Ular hatto mebellarning o'z xohishlaricha joyini o'zgartirishlari mumkin. Bugun stollar «yulduzcha» shaklida joylashtirilgan bo'lsa, ertasiga aylana shaklida joylashtirish mumkin. Kirishdagi devorlar bolalarning o'zlarining ishlari bilan jihozlanishi- imkon qadar bolalar o'zlarining ishlarini o'zlari qilishlari lozim. Mebellarning joylashtirilishi bolaga alohida o'ynashga va mustaqil ishlashi uchun qulay bo'lishi lozim. Har bir bolaning o'zining alohida gilamchasi mavjud bo'lib (shaxsiy masofa modeli) va unga bolaning ruxsati bilangina boshqa bola joylashishi mumkin. M.Montessori pedagogikasi ijodiy fikrning jamlanishini tezlashtiradi va ma'naviy charchoq davrida unga yordam beradi. Biz tomondan yaratilgan rivojlantiruvchi muhitning ajralib turadigan tomoni-bu uning estetik jihatidan talabga javob berishidir. Biz imkon qadar bolalar uchun mo'ljallangan jihozlar yorqin, tabiiy ranglarda bo'lishi, bu jihozlar yoshlikdan bolada chiroyli narsalarga muhabbat uyg'otishi, badiiy didlarini taraqqiy ettirib borishi lozim. Chiroy ko'rkamlikda emas, balki rang va tasvirlarning uyg'unligida, tartiblikda va to'g'ri joylashtira bilishdadir. Atrofimizda yaratilgan barcha shart- sharoit - xonani jihozlashdan tortib to tarbiyachining tashqi ko'rinishigacha - bolani tarbiyalaydi.

Amaliyotda tajriba o'tkazish mini-muhitida mebellarni yuvish uchun lozim bo'ladigan jihozlar: idish- tovoqlar, o'simliklar, gullar to'plami va

boshqa jihozlar mavjud bo'lishi lozim. Bu muhitda bola o'zi to'g'risida, atrofidagi odamlar to'g'risida, o'zi yashayotgan, o'ynayotgan narsalar to'g'risida o'ylashga o'rganadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bu tajribalar bolalarga quvonch bag'ishlabgina qolmasdan, balki ularning malaka va qobiliyatlarini taraqqiy ettiradi-shuningdek matematik tasavvurlarni kengaytiradi, izlanuvchanlik va nutqiy malakalarini ham oshiradi. Suv bilan, shuningdek boshqa jihozlar bilan o'ynar ekan bolalar hajm, sanoq, son va boshqa tushunchalar bilan tanishadi. Mustaqillikka, tartiblilikka, kattalarga yonbosmaslikka, narsalarga ehtiyotlilik bilan munosabatda bo'lishga, bu narsalar bilan o'zi turgan joyni jihozlashga o'rganadi. Bu mini muhit uchun bir qator mashqlarni o'ylab topish, shuning bilan bolaga o'z-o'ziga xizmat qilish davrida chaqqon bo'lishga va kelgusida yozuvga, savodga, matematika mashg'ulotiga tayyor bo'lishga imkon yaratadi. Bu erga tiniq va tiniq bo'lmagan turli ko'rinishdagi idishlar va hajmli narsalar, o'lchash uchun qoshiqlar, to'rlar va voronkalar, yarimta sovundonlar, yax tayyorlash uchun shakllar, uchlari aylana pipetkalar, toslar, trubkachalar, ko'pirtirgichlar, cho'tkalar va boshqa narsalarni qo'yish mumkin. Bolalar qirg'ich bilan ishlashni: masalan sovunni qirg'ichdan o'tkazishni o'rganadilar. Ular shampunni ko'pirtirishlari, va undan ko'pik hosil qilishlari mumkin, bunda qo'llarining aylanma harakatlarini shakllantiradilar.

Bolaning taraqqiyoti jarayoni faqat o'yin orqali olib borilmay, balki qo'llar harakati orqali olib borish mumkin. Bunga biz alohida ahamiyat beramiz. M.Montessori pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri-«Barmoqlar uchining harakati inson intellektining taraqqiyot qurolidir». Shu tamoyil asosida bolalar turli narsalarning xususiyatlarini: masalan suvda shakarni, tuzni, melni, unni solib, bu narsalarni erib ketishini bilib oladilar. Ular oyoq kiyimlarini krem bilan tozalaydilar, uni yaltiraguncha artadilar, plastmassa pinsetdan foydalanishni o'rganadilar, paxtani rulondan ajratib olish orqali barmoqlarini harakatga keltiradilar va mashq qildiradilar, xamir bilan ishlashni, sabzavotlarni kesish, mahsulotlar xususiyatlarini va sifatlarini to'g'ri aytishga o'rganadilar. To'rlar yordamida bola yormani guruchdan ajrata olishni o'rganadi va uni boshqa idishlarga joylashtiradi. Bu jarayonlar asosida bola ko'z bilan chamalashini, diqqatini jamlashni, irodasini taraqqiy ettirishga yordam beradi. Agar bola nimanidir to'kib yuborsa yoki sohib yuborsa, shu erning o'zida bolaning o'zi lattani olib, xokondoza solishni bilishi lozim.

**Sensor rivojlanish mini-muhitida** M.Montessori tavsiya etgan jihozlardan boshqa ta'limiy jihozlar: B. Nikitinnning («Naqsh yasa»), «Unikub», «Qirqma kvadrat» kabi jihozlar va turli tuman o'yinlarni taklif

etish mumkin. Bu erga mualliflik jihozlarini joylashtirish mumkin. Masalan: Ko'rishni taraqqiy ettirish uchun turli ranglardan tashkil topgan spektrlar, rangli tiniq plastik jadvallar, bo'yoqlarni aralashtirish uchun jihozlar va boshqalardan foydalanish mumkin. Bu muhitda bolalar rangli «yo'lkachalarni» yasaydilar, ya'ni eng to'q rangdan eng och rangga tomon yo'nalib boradilar.

Eshitish sezgisini taraqqiy ettirish uchun «Jaranglaydigan korobkachalar»dan foydalanishlari (korobkachalar ichiga toshlar, metall sharchalar solinadi), musiqa asbobida o'ynashlari mumkin.

Harakat sezgisini taraqqiy ettirish uchun shunday jihozlarni joylashtirish lozimki, ular barmoqlarning mayda qo'l motorikasini shakllantirishga yordam berishi mumkin (qisqichlar, turli-tuman mozaikalar, turli hajmdagi qurish- yasash jihozlari);

Sezgi organlarini taraqqiy ettirish uchun yuzasi har xil kartochkalar va matolar, «His etish qopchasi», g'adir-budir harflar, raqamlardan foydalanish mumkin. Xohlashsa bolalar ko'zlarini yumib ishlashlari, maxsus ko'zoynaklar taqqan holda notekis yuzalikni qo'l bilan his qilishlari, nimadan yasalganini aniqlashlari va tartib bilan joylashtirishlari mumkin.

Ta'm va hid bilishni ajratish uchun alohida jihozlar mavjud bo'lishi mumkin.

**Nutq o'stirish va husnixat va savodga o'rgatish mini** - muhitida M.Montessori, N.A.Zaysev, V.A.Ilyuxina va boshqalarning turli uslublarini qo'yish mumkin. Hozir ko'pchilik maktabgacha yoshdagi bolalar o'qishga o'rgatish to'g'risida munozara o'tkazishayapti. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi uslubiy jihatidan ishni to'g'ri tashkil etishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan o'yin faoliyati orqali bolalar harflar bilan o'ynashadi, o'qishga va yozishga o'rganishadi, so'zlar yozilgan turli tuman kartochkalardan, rebuslardan, yirik bosma shriftlar chiroyli rasmlardan foydalanishlari mumkin.

Bolalarning mustaqil faoliyati rejalashtirilmaydi, u bolaning irodasiga, qiziqishiga va kayfiyatiga bog'liq. Kimdir no'xotni xumchaga to'ksa, boshqa bola 100gacha sonni sanaydi, o'z xohishi bo'yicha ijod qiladi. Hayot faoliyati bolalarni faollashtiradi. SHuni nazarda tutish lozimki, har bir jihoz bir nushadan bo'ladi. Bolalar chidam bilan kutishga o'rganadi. Bittasi ishni tugatguncha boshqasi kutib turadi, shundagina boshqa bola xuddi shu narsani yoki jihozni olib o'ynashi mumkin: hamma birgalikda o'ynaydi, urishmaydi. Rivojlantiruvchi jihoz orqali bola o'z xatolarini nazorat qilib borish imkoniyatiga ega.. Masalan kichkintoy «hidli bankani»



hidlaydi va juftini topadi. So'ngra bankachani to'nkarib belgilarini mos kelish kelmasligini tekshiradi. Agar bola o'zi xohlagan ishni topgan bo'lsa, u bilan qancha xohlasa shuncha shug'ullanishi mumkin, faqat ishni tugatib bo'lib jihozni joyiga qo'yib qo'yishi lozim. Bunda bola ma'lum erkinliklarga ega (o'zi jihozni tanlashi, ish joyini tanlashi, ularning joyini o'zgartirishi mumkin) va xaq-huquqqa ega (dam olishi, xato qilishi mumkin) Ongli ravishda bu narsalardan lazzatlanish uni ahloqiy jihatdan takomillashishiga yordam beradi. Har bir bola o'zining shaxsiy rejasi asosida shakllanadi, ish faoliyati davomida qo'rquv, ishonchsizlik hissini sezmaydi.

Bunday muhitda tarbiyachi nima qiladi? M.Montessorining shiori – «Men o'zimga bajarishimga yordam ber, men o'zim bajaraman». Tarbiyachi doim mehribon bo'lishi, sabr-toqatli, bolani to'g'ri yo'lga yo'naltirishi, o'zining shaxsiy namunasi bilan nima qilish va qanday qilish lozimligini ko'rsatishi lozim. U bu erda ustoz emas, balki voqealarning qatnashchisi sifatida ishtirok etadi: faqat bolalarni qiziqтира olishi lozim. O'zaro bir- birini tushunish, anglash va muhabbat tuyg'usi asosida muloqot olib boriladi. Tabassum, imo-ishora bilan kichkintoyni qo'llab quvvatlab turadi, ko'proq uni maqtaydi. Tarbiyachining ichki dunyosi bilan kichkintoyning ichki tuyg'usi o'rtasida mustahkam o'zaro bog'liqlik mavjud, tarbiyachining madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, bolaning madaniyat darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Bunday jarayon davrida tarbiyachi ham, bola ham shakllanadi, bu esa hamma uchun hisiy qulaylik yaratadi, shuningdek ota-onalarni ham ijod qilishga rag'batlantiradi. Ijodiy-rivojlantiruvchi muhitning samarasi kichkintoyning umumiy taraqqiyotiga, ijodiy tafakkuriga, mustaqilligiga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitgagina bog'liq emas, balki tarbiyachining bola bilan bo'ladigan muloqotiga, vaziyatga, beriladigan topshiriqlarga, ularni berish usullariga ham bog'liq. Bolalarga ta'lim- tarbiya berish bir tartibda o'tmaydi. Tarbiyachi bolalarning taraqqiy etish dinamikasini kuzatib borishi, lozim bo'lsa yordam ko'rsatishi, ammo bunda bolaning psixikasiga nisbatan yutuqlari darajasini dastur talablari bilan solishtirilmaydi. Bizning tajriba shuni ko'rsatadiki, yuqorida ko'rsatilgan shart-sharoitlarda psixikasi sog'lom bola sezilarli darajada an'anaviy davlat ta'lim standartlaridan o'zib ketadi, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar esa o'z yoshlariga mos etarlicha bilim va malakalar oladilar. Yuqori darajada olinadigan bilimlar darajasi har bolaning individual imkoniyatlariga bog'liq. Ijodiy-rivojlantiruvchi muhitni to'g'ri tashkil etish-bola shaxsining har tomonlama etuk bo'lishiga: mustaqil, maqsadga intiluvchan, ishni to'g'ri rejalashtira olish qobiliyatini takomillashtiradi. Bunday vaziyatda bolani to'g'ri anglab harakat qilishga o'rgatadi.

Tarbiyachilar bolalarning o'xshamaydigan hislatlarini qadrlashlari, o'ziga xos individual bo'lishlarini hurmat qilishi lozim Tarbiyachilar! Bolani majburlamang, bolaning erkin faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratib bering. Eng asosiysi hamma narsa bola uchun qiziqarli bo'lishi lozim.

### **Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi-predmetli o'yin muhitini yaratish - intellektual qobiliyatli va bilimli avlodni tarbiyalashning muhim vositasi**

Maktabgacha yoshdagi bolaning to'laqonli rivojlanishi uchun rivojlantiruvchi – predmetli o'yin muhiti va kattalarning ular bilan mazmunan boy muloqoti yagonaligi zarur omil bo'lib hisoblanadi. Rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhiti – maktabgacha yoshdagi bolani jismonan, ma'nan, shuningdek, intellektual rivojlantirish mazmunini modellashtirish vazifasini bajaruvchi atrof–muhitdagi narsalar tizimidir.

Mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar, barcha sohalardagi rivojlanishlar maktabgacha ta'lim muassasalarida ham tub o'zgarishlarga erishishni taqozo etmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida yaratilgan rivojlantiruvchi muhit maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari va «Bolajon» dasturi vazifalarini sifatli, uzluksiz, izchil hamda bolalarning yosh jihatlarini hisobga olgan holda bosqichma – bosqich amalga oshirishga xizmat qilishi lozim. Rivojlantiruvchi predmetli muhit bolaning aqliy fikrlash, boshlang'ich tashabbuskorligini o'stirish, o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llashga faol xarakter qilishidagi asosiy vositadir.

Bola amal qiladigan predmetli muhit undagi bilim va ko'nikmani amaliyotda qo'llash uchun bitmas-tuganmas axborot manbai bo'lishi, bola ehtiyojini qondiruvchi, uni mantiqan fikrlashga, mustaqil ravishda yangilik yaratishga undovchi, boladagi malakani yanada takomillashtiruvchi manbaga aylanishi zarur. Rivojlantiruvchi muhit maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning o'z qobiliyati va imkoniyatlarini, is'tedodlarini namoyish eta oladigan madaniy-ma'rifiy markaz sifatida shakllanmog'i kerak. Bolaning muntazam tarzda foydali va qiziqarli mashg'ulot bilan band bo'lishini ta'minlaydigan muhitni yaratish uchun jamoadan yuksak ijodkorlik bilan mehnat qilish talab etiladi. Bolalikning predmetli muhiti yosh, navqiron avlodning shakllanuvi uchun zarur bo'lgan barcha axborot va ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Bola rivojlanishining predmetli muhiti bola va uning shaxsi to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi yaxlit bir tizim bo'lib, unda bola hozirgi zamon talablari darajasida jismoniy, estetik, aqliy, ijtimoiy tarzda to'liq rivojlanadi. Rivojlantiruvchi predmetli muhit bolalar shaxsini, kobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tezlashtirish uchungina xizmat qilib qolmay, bolalarni ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, mustaqil izlanishga, o'z kuchiga ishonishlariga, yangiliklarga intilishlariga, yaratuvchanlikka undaydi.

Rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhitiga qo'yiladigan talablarning eng muhimi - shu muhitning **rivojlantiruvchi xarakterligidir**. Rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhiti shunday tashkil etilmog'i kerakki, u erda har bir bolaning ijodiy faoliyati uchun sharoitlar yaratilgan bo'lsin. SHuningdek, bola intellektual taraqqiyotiga, uning jismonan, ruhan o'sishiga mazmunan yondoshgan bo'lishi ham zarur. SHuningdek, rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhitining **axborot bilan to'yingan bo'lishi**, maktabgacha yoshdagi bola rivojining turli bosqichlarida o'ziga xos mazmunda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bola bu muhitdan o'z yoshiga xos ma'lumotlarni olishi kerak. Narsa-xodisalar mazmun jihatdan maktabgacha yoshdagi bolalar tushunchasiga muvofiq bo'lishi bilan birga, ularning tasavvurini boyitishi ham kerak.

Mazkur **muhitining rivojlantiruvchi vazifasi** - bolaning ham jismoniy, ham ruhiy, ham axloqiy, ham aqliy rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhitiga qo'yiladigan talablardan yana biri - **uning muqobil (variativ)ligidir**. Maktabgacha ta'lim muassasasining tipi, u erdagi ta'lim-tarbiyaviy jarayon mazmuni, madaniy, badiiy an'analar, muassasaning joylashgan joyi, bolalar, ota-onalar hamda pedagoglar kontingenti hisobga olinib, mazkur muhitning tuzilishi, mazmuni ham turlicha bo'lishi tabiiy.

Shunday ekan, maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhitini yaratish jarayoni psixolog, pedagog, dizayner maslahatiga binoan tashkil etilishi kerak. Rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhitining har bir komponenti qulaylik tamoyili, bola rivojlanishining asosiy qonuniyatlariga mos kelishi kerak. Rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhitining shu talablar nuqtai nazaridan kelib chiqib yaratilishi bola faoliyatini qiziqarli, sermahsul qiladi, pedagog mehnati samaradorligini ta'minlaydi, bolani ham pedagogni ijodkorlikka safarbar qiladi. Rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhiti turli yoshdagi bolalar tarbiyasiga oid pedagogik vazifalar va faoliyatni rivojlantirish qonuniyatlariga javob berib, predmetli o'yin muhitining yagona tizimidan iborat bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan o'yinlar **mustaqil va ta'limiy** ko'rinishda bo'lib, bola rivojlanishida o'ziga hos vazifani bajaradi. CHunki, bu yoshdagi bolaning etuk ijodiy rivojlanishini ta'minlash uchun, avvalo, uni o'rab turgan muhit va kattalar hamda bolalarning o'zaro mazmunli muloqoti muhim ahamiyatga ega. Rivojlantiruvchi predmetli **muhitning asosiy tarkibiy kismi:**

- landshaft-arxitektura ob'ektlari;
- tabiiy-ekologik ob'ektlar;
- badiiy studiyalar;
- o'yin maydonchasi;

- sport maydonchasi;
- yirik qurilmalar;

O'yinchoklarning mazmunli to'plamlari kabilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq. MTMda rivojlantiruvchi predmetli ***o'yin muhiti tarkibi:***

- o'yin joyi (zonasi);
- o'yin anjomlari;
- o'yinchoqlar;
- o'yinlar, o'yin materiallari.

Mazkur muhitni ***yaratish tamoyillari:***

- tanlash erkinligi;
- universallik, o'zgaruvchanlik;
- dinamikaga egalik;
- tizimlilik, muvofiqlik;
- qiziqarliligi.

Rivojlantiruvchi predmetli muhitning ***sifatlari*** quyidagilar:

- rivojlantiruvchi;
- yoshiga mosligi;
- ruhiyatga mosligi;
- estetikasi;
- gigienasi;
- ishonchliligi, xavfsizligi;
- hammabopligi.

Bolaning etuk ijodiy rivojlanishini ta'minlash uchun rivojlantiruvchi muhit va kattalar hamda bolalarning mazmunli o'zaro muloqotining birligi o'rnatilishi zarur.

### **Guruhlarda tashkil etiladigan burchaklar**

#### **Faollik markazlari**

Bolaga tanlash imkoniyati, eng avvalo, xonada maydonni tashkil etish orqali yaratiladi. Har bir guruhda o'yin va boqa mashg'ulotlar uchun turli-tuman materiallar bo'lgan bir nechta faollik markazi bo'lmog'i lozim. Markazlar to'plami turli guruhlarda har xil bo'lishi mumkin, lekin bu to'planning asosi quyidagi mazmundagi markazlardan iborat bo'lishi mumkin:

- syujetli-rolli o'yin;
- stol usti o'yinlari;
- qurilish;
- adabiyot;
- san'at;
- qum va suv;
- ochiq maydoncha

- Matematika
- Tabiatshunoslik
- Dramalashtirish
- Pazandalik

**Syujetli-rolli** o'yin markazida kastyumlar va boshqa predmetlar bo'lishi, ular bolalarni atroflarida kuzatayotgan voqea-xodisa yoki narsalarni o'yinga aylantirishga yordam beradi. O'zlari yashab turgan dunyoni tushunishda u yoki bu rollarni o'ynab voqea xodisalarni sinab ko'rishlarida ko'maklashishi lozim. Bunga predmetlar to'plami murabbiylar tomonidan tanlanadi hamda vaqti-vaqti bilan yangilanib turilishi lozim. Masalan: Bir xafta davomida kir yuvish bilan bog'liq bo'lgan buyumlar bo'lishi. Keyingi haftada esa kosmonavt yoki sirkchi bo'lib o'ynash uchun kerakli predmetlar bilan almashtirilishi mumkin.

Stol usti o'yinlari va o'yinchoqlari markazi- bolalar qismlarga ajratib qayta yig'ishlari mumkin bo'lgan o'yinchoqlar, boshqotirmalar, mayda detalli konstuktorlar, boshqa qurilish o'yinchoqlar, boshqotirmalar, mayda detalli konstruktorlar va boshqa qurilish o'yinchoqlari. Bu erda shuningdek buyumlarni tanlash, moslash, hisoblash va toifaga ajratishda, o'z o'yinlarini o'ylab topishda til amaliyotini o'tishda bolalarga yordam beradigan o'yinlar ham bo'lishi kerak. Bu markazdagi mashg'ulotlar intellektual ko'nikmalar, nozik harakatlar, ko'z bilan chamalash rivojlanishiga ko'maklashadi. Bundan tashqari ijtimoiy ko'nikmalar xosil qilinadi, chunki bolalarga materialni bo'lishib olishga, kelishishga va turli muammolarni birgalikda hal qilishga to'g'ri keladi.

**Qurilish markazida** bolalar tasavvur bilan yaratilgan binolarni tiklash uchun turli hajm va shakldagi bloklar yoki turar joy binolari, fermalar, hayvonot bog'lari va boshqalar singari tanish inshootlardan nusxa oluvchi konstruksiyalar bo'lishi lozim. Bolalar qurilish bilan shug'ullanar ekanlar, ko'p narsaga ega bo'ladilar. Intellektual va matematik bilimlari boyiydi, ijtimoiy ko'nikma xosil bo'ladi, muammolarni hal etish va diqqatni jamlash qobiliyati rivojlanadi, ijodiy salohiyat ishga tushadi. Bu markazga qo'shimcha tarzda xilma-xil buyumlar – mashinalar, yuk mashinalari, hayvonlar va odamlar shakllari, aeroplplar, binoni qoplash materiallari – konstuksiyani boyitish uchun bolaning fikriga kelgan barcha narsa iritilishi mumkin.

**Qurilish markazida** turli xajm va shakldagi qurilish elementlarim mavjud bo'lib, bolalar ulardan fantastik va xayotiy inshootlar bunyod etadilar: Misol uchun uylar, butun boshliq bir shaxarchalar, ferma va xayvonot bog'lari qurilish bilan mashg'ul bo'lgan bolalar bu erda juda ko'p narsalarni o'zlashtirib oladilar. U Bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni xosil qilishlariga yordamlashadi,

muammaolarini xal etish tajribasini beradi. Bu erda shuningdek ijodiy yondashishni namoyish etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etadi.

Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar istak-xoxishi bilan ko'plab turli narsalarni o'yinchoq mashinalar, yuk mashinaldari, odomlar va xayvonlarning shaklchalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarni qo'shib quyish mumkin.

**Pazandalik markazida.** Pazandachilik markazi bolalarni ayrim narsalarning xossalarini tekshirish, yangi ovqatlarni tatib ko'rish, shu jumladan ularni o'zlari tayyorlashlari, yangi matematik tushunchalar, masalan, o'lchov tushunchasi bilan tanishish imkonini beradi. Birgalikdagi pazandalik mashg'ulotlari o'zaro munosabat, boshqalar bilan fikr almashishni o'rgatadi, sherik bo'lib ishlashni imkoniyatini beradi. Ushbu markazda ko'plab tushunchalarni o'zlashtirish mumkin. Tarbiyachilar bolalar bilan ranglar, sonlar, shakllar to'g'risida, ovqatlanish, tabiatshunoslik haqida fikrlashib olishlari mumkin. Pazandalik bolalarga jonli hayotiy tajribalarni beradi.

**Dramalashtirish markazida** bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik sahna ko'rinishlarini o'ynashga hohish – istak uyg'otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo'lishi zarur; bu narsalar ularda atrofda nimalar sodir bo'layotganini ajratib olishlari hamda o'z o'rinlarini tushunib etishishlariga yordam beradi. Markazdagi narsalarni tarbiyachilar tanlaydilar. Ular bu narsalarni bir haftaga "kir yuvish" o'yini uchun, uchinchi haftaga hayvonlarga qarshi o'yini uchun rekvizit sifatida taklif etishlari mumkin. Rekvizitlar bolalarning qiziqishlari asosida tanlanadi.

**Adabiyot markazida** kitoblar va eshitish hamda yozish uchun o'quv qurollari mavjud bo'ladi. Bu tinch burchak bo'lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga o'qib berishlari mumkin, shuningdek, bu erda tarbiyachi yoki ko'ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o'qib berishi mumkin. Bolalarga kitobchalarni o'z qo'llari bilan yasash, mavzu (syujet)larni o'ylash va o'ynash, hikoyalar eshitish taklif etiladi.

Bolalar kitoblarni ko'rib chiqishi qulay bo'lishi, bir-biriga kitob o'qib berishi yoki kattalar o'qib berayotganda tinglashi uchun bu erda tinchlik xukm surishi lozim. Bu markazdan kun bo'yi foydalaniladi. Unda bolalar mutolaa qilibgina qolmay, balki o'z kitoblarini tayyorlash bilan shug'ullanadilar, voqealarini hikoya qilib beradilar, ular bo'yicha teatr qo'yadilar.

**San'at markazi** bolalarni ijod qilishga, yangi materiallar hamda yoqimli tuyg'ulardan lazzat olishga rag'batlantirishi kerak. Bolalarning qo'lga bo'yoq, qaychi, qog'oz, rangli qalam, bo'r, gazlama qiyqindilari, elim,

plastilin, loy berib qo'yish maqsadga muvofiq. Shuningdek bu erda ko'plab tabiiy materiallar: yaproqlar, shoxcha, qum ham qo'yish mumkin. Ushbu markazdagi mashg'ulotlar ijodiy qobiliyat uyg'onishiga ko'maklashadi, so'z bilan yoki so'zsiz muloqot amaliyotini beradi, o'z qadr-qimmatini bilish tuyg'usini shakllantiradi, aql-zakovat hamda nafis harakatni rivojlantiradi.

**Tabiatshunoslik markazidan** bolalarning tabiat hodisalari va ko'chada topilgan narsalar bilan mashg'ul bo'lishlari uchun foydalaniladi. Tarbiyachi guruhda bu kichik "xazina"ni namoyish etish va tekshirish uchun maxsus joy ajratishi mumkin. Ushbu markaz o'z qiyofasini bolalarning qiziqishlari, yil fasllari va dastur bo'limlari mavzularning o'zgarishiga qarab o'zgartiradi. Natijada bolalarni magnitlar, suv, er tortishish kuchi kabi fizik tushunchalar bilan amaliy tanishtirish mumkin.

Bolalar sayr qilish paytida o'simliklar, daraxtlar va hayvonlarni kuzatgan holda tabiatshunoslik fani asoslarini tushunib etadilar, atrof-muhitni o'rganadilar. Tarbiyachi bu jarayonni boshqarishi va qo'llab-quvvatlashi zarur.

Bir markazdagi materiallar boshqa markazda foydalanishi mumkin. Masalan, bolalar o'yinlar stolidagi hayvonlarning shakllarini agar ular qurilish markazida hayvonot bog'i qurgan bo'lsa u erga olib o'tishlari mumkin. Tarbiyachilar bolalar qanday rivojlanayotganligi, bilimlarni qanday egallaganligi hamda ular qiziqishlari o'zgarayotganligiga qarab materiallarni almashtiradilar. Qushimcha faoliyat turlarini navbat buyicha yoki agar binoda imkoniyat bo'lsa asosiy markazlarga qo'shimcha qilib kiritish mumkin. Bular yog'ochda ishlash, joriy mavzu bilan yoki maxsus voqea bilan bog'liq mashg'ulot bo'lishi mumkin.

**Qum va suv markazi**-bu guruhdagi maxsus stol yoki hovlida tashkil etilgan tuproq uyumidir, bu narsa bolalarga bilim orttirishga mo'ljallangan o'yinlar uchun, sezish organlaridan foydalanish uchun ajoyib imkoniyatlar beradi. Bolalar ushbu tabiat materiallarini o'rganish davomida ijod qiladilar, fikrlaydilar, o'zaro o'rtoqlashadilar. Ular umumiy va nozik harakatlarni mustahkamlaydilar. Bunda xokandozcha, to'rli sizgich, qadoqchalar va chelakchalar bo'lishi lozim. SHunday qilib, matematik va tabiiy-ilmiy tushunchalar shakllanadi, ijodiy fikrlash rag'batlantiriladi

Bino ichida (maxsus stollar bo'lsa) yoki qum hamda suv xavzasi bo'lgan ochiq maydonchada joylashgan qum va suv markazi bolani ko'p narsaga o'rgatadigan joy hisoblanadi. Bu erda olam-olam tuyg'ular his etish, shuningdek topqirlik qilish va mushalarni rivojlantirish mumkin. Ushbu markazda foydalaniladigan buyumlarga belkurakcha, qolipcha, g'alvir, kemachalar, sochma, chelak va xokazolar kiradi. Bolalar suv va qum

o'ynab ijodiy qobiliyatlarini o'stiradilar, matematik hamda tabiiy ilmiy tafakkurlarini kengaytiradilar. YOzda suv o'ynaganda bola u salqinlik keltirishini anglaydi, qishda esa qor va muz xususiyatlari to'g'risida tasavvur xosil qiladi.

Binodan tashqarida bo'lish kundalik tartibning muhim qismi. Xona ichida o'rnatilishi va o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan barcha narsani tashqarida ham qilsa bo'ladi. Bu ijtimoiy ko'nikmalarga ham, tabiat boyliklaridan bahramand bo'lishga ham tabiiy ilmiy hamda matematik bilimlarga ega bo'lishga ham, shuningdek nafis va yirik harakatlarni rivojlantirishga ham taaluqli. Ochiq maydonchadagi faoliyatning ijodiy jixati syujetli-rolli o'yinlar yoki guruh bilan bajariladigan boshqa mashg'ulotlar hisobiga kuchaytirilishi mumkin.

### **Loyihalar uchun ijodiy va innovatsion yondashuvlar**

«Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari» va «Ilk qadam» o'quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. O'quv dasturda maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Shu bilan birga rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagilar ko'rsatiladi:

- maktabgacha ta'lim muassasasining ko'rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar: milliy va mintaqaviy an'analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi lozim;

- muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.

Albatta maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga

qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish (rivojlanish) markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi ilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Dastur asosida tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:

- o'zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- tanqidiy fikrlash;



- tanlashni amalga oshirish;
- muammolarni eta olish;
- ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;
- odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

Bugungi dunyo kechagi kabi emas, ertangi kun ham bugungi kabi bo'lmaydi! Inson faoliyati barcha sohalarida dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda. Zamonaviy bolalarning 65 foizi bugungi kunda mavjud bo'lmagan kasblarni egallaydi. Kelajakdagi mutaxassislar texnologiya, ilm-fan va muhandislikning turli xil sohalaridan kompleks ta'lim va bilimlarga muhtoj bo'ladi.

STEAM farzandlarimizga - ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o'yin orqali yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda STEAM-ta'lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoq da va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, bunad ular fikrlarni to'plashi va fikrlar almashadi. Shuning uchun, asosiy ta'lim dasturiga quyidagilar Lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi.

STEAM (S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - can'at, M - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv.

STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga quyidagicha yordam beradi:

- Muammolarni keng qamrovli tushunish;
- Ijodiy fikrlash;
- Muhandislik yondashuv;
- Tanqidiy fikrlash;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash;
- Dizayn asoslarini tushunish.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Yaponiya, Izrail, Singapur, Rossiyada maktabgacha ta'lim muassalarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam

o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi.

O'z-o'ziga ishonchni shakllantirish. Bu yondashuvda bolalar o'z qo'llari bilan yaratgan ko'prik va yo'llar, samolyotlar va avtomobillarni "ishga tushirib", suv osti va havo tuzilmalarini "rivojlantirib", sinovdan o'tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan "mahsulot"ni qayta-qayt sinovdan o'tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o'zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g'alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g'alaba, o'zlarining qobiliyatlariga ko'proq ishonch uyg'otadi.

Faol muloqot va jamoaviy ish. STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo'rqmaslikka o'rganadilar. Ko'pincha, stol atrofida o'tirmaydi, o'zlarining dizaynlari asosidagi "mahsulot"larni sinovdan o'tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta'minlaydigan jamoadatarbiyachilar va ularning do'stlari bilan muloqot qilish bilan band bo'lishadi.

Texnik fanlar bo'yicha qiziqishlarni rivojlantirish. Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi STEAM ta'limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo'yicha, qilgan ishni yaxshi ko'rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. STEAM - bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo'lib, bolalarning zerikishlariga to'sqinlik qiladi. Ular vaqt o'tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamadilar. Raketalar, avtoullovlar, ko'priklar, osmono'par binolarni qurish, elektron o'yinlar, fabrikalar, logistika tarmoqlarini yaratish, dengiz osti kemalari, ilm-fan va texnologiyaga qiziqishi ortib borada.

STEAM ta'limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokamalar, dizayn, qurilish, test va takomillashtirish. Ushbu bosqichlar muntazam ravishda loyiha yondashuvining asosidir. O'z navbatida hamkorlik yoki turli imkoniyatlardan birgalikda foydalanish ijodkorlik asosi hisoblanadi.

Shunday qilib, bir vaqtda bolalarda fan va texnologiyalarni qo'llash, yangi innovatsiyalarni yaratishi mumkin. Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag'bat uyg'otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda

nazorat qilib borishlari zarur bo'лади.

Tarbiyachi o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda etkazadilar. Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagogik jamoasining o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak.

Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda avvalo shuni tushunib etish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir.

Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. SHuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta'kidlashadi.

Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy etuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o'z g'oyalarini tajribada sinab ko'rish xoxish-istaklariga qaratilgandir.

Bunda bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e'tibor berish avtomatik tarzda faollashadi. Bunda tarbiyachining roli savolni soddalashtirmasdan va bolani ko'p axborot bilan chalg'itmasdan uni qoniqtiradigan javob topish yo'llarini birgalashib qidirishdan iboratdir. Rivojlanish markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin.

## **Xulosa**

Maktabgacha yoshdagi bolaning to'laqonli rivojlanishi uchun rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhiti va kattalarning ular bilan mazmunan boy muloqoti zarur omil hisoblanadi. Rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhiti - maktabgacha yoshdagi bolani jismonan va ma'nan rivojlantirish mazmunini modellashtirish vazifasini bajaruvchi atrof-muhitdagi narsalar tizimidir.

Mamlakatimizda qilinayotgan islohotlar, barcha sohalaridagi rivojlanishlar maktabgacha ta'lim muassasalarida ham tub o'zgarishlar yasashni taqozo etmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida yaratilgan rivojlantiruvchi muhit bolalar ta'limiga qo'yiladigan Davlat talablari va «Bolajon» tayanch dasturi talablarini sifatli, uzluksiz, izchil hamda bolalarning yosh jihatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga xizmat qilishi lozim. Rivojlantiruvchi predmetli muhit bolaning boshlang'ich tashabbuskorligini o'stirish, bilimlarini amalda qo'llashga faol harakat qilishdagi asosiy vositadir.

Bola amal qiladigan predmetli muhit undagi bilim va ko'nikmani amaliyotda qo'llash uchun axborot manbai bo'lishi, bola ehtiyojini qondiruvchi, yangilikka undovchi, undagi malakani takomillashtiruvchi manbaga aylanishi zarur.

Rivojlantiruvchi muhit maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning o'z qobiliyati va imkoniyatlari, iste'dodlarini namoyish eta oladigan madaniy-ma'rifiy markaz sifatida shakllanmog'i kerak.

Bolaning foydali va qiziqarli mashg'ulot bilan muntazam tarzda band bo'lishini ta'minlaydigan muhitni yaratish uchun jamoadan ijodkorlik talab etiladi.

Bolalikning predmetli muhiti yosh navqiron avlodning shakllanuvi uchun zarur bo'lgan barcha axborot va ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Bola rivojlanishining predmetli muhiti bola shaxsining to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi yaxlit bir tizim bo'lib, unda o'g'il yoki qiz hozirgi zamon talablari darajasida jismoniy, estetik, aqliy, ijtimoiy tarzda to'liq rivojlanadi.

Rivojlantiruvchi predmetli muhit bola shaxsini, qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tezlashtirish uchungina xizmat qilib qolmay, bolalarni ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, mustaqil izlanishga, o'z kuchiga ishonishlariga, yangilikka intilishga, yaratuvchanlikka undaydi. Rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhitiga qo'yiladigan talablarning eng muhimi - shu muhitning rivojlantiruvchi xarakterligidadir. Rivojlantiruvchi predmetli o'yin muhiti shunday tashkil etilmog'i kerakki, u erda har bir bolaning ijodiy faoliyati uchun sharoitlar yaratilgan bo'lsin. Shuningdek, bola taraqqiyotiga, uning jismonan, ruhan o'sishiga mazmunan yondashgan

bo'lishi ham zarur.

Tarbiyachilik tajribamda bolalarda nutq nuqsonlarining turli xilda bo'lishi, ular bilan olib borilayotgan ta'limiy-korreksion ishning ham turlicha bo'lishiga guvoh bo'ldim va shunday xulosaga keldimki, bola nutqidagi nuqson kanday bo'lishidan qat'iy nazar, uni bartaraf etishda asosan:

- bolalarda nutqning tovush tomonini shakllantirish;
- lug'atini rivojlantirish;
- grammatik tuzilishi ustida ishlash;
- bog'langan yoyiq nutqni xosil qilish ishlariga e'tibor qaratilishi zarur ekan.

Bu vazifalar to'liq bajarilsagina bolalarning nafaqat umumiy ruhiy rivojlanishiga erishiladi, balki ularning ta'limning keyingi bosqichida qiynalmasligi ham ta'minlanadi.

Shunday ekan, ta'lim jarayonini sifat jihatdan yuksaltirish, uning mazmunini boyitish, samaradorligini oshirish, yosh avlodni ta'limning keyingi bosqichida hech bir muammosiz bilim olishni davom ettiradigan bolalar ilib etishtirishimiz uchun eng zamonaviy uslublarni keng qo'llashimiz zarur. Xususan, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga jadal joriy etish shu kunning muhim vazifalaridan ekanin chuqur his qilishimiz lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2008 yil 24 iyundagi 162 – sonli buyrug'i. T.2008 y
2. «Ijodiy muhitni yaratish–muvafaqqiyat garovi». M.2006 g. «Воспитатель» jurnali. 2006 yil №5
3. “Samarali boshqaruvga ijodiy yondoshuv”. Дошкольное образование. M.2008 г. № 2

## MUNDARIJA

Muqaddima .....	3
Guruhlarda ijodiy, rivojlantiruvchi muhitni yaratish - bu muvafaqqiyat garovidir.....	5
Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi-predmetli o'yin muhitini yaratish - intellektual qobiliyatli va bilimli avlodni tarbiyalashning muhim vositasi.....	11
Guruhlarda tashkil etiladigan burchaklar.....	15
Loyihalar uchun ijodiy va innovatsion yondashuvlar.....	19
Xulosa .....	24
Foydalangan adabiyotlar .....	26

**Qarshiyeva Zulfiya Shukurovna**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA  
RIVOJLANISHIDA PREDMETLI MUHITNING AHAMIYATI**

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 10.01.2021 y.  
Bosishga ruxsat berildi: 13.01.2021 y  
Ofset bosma qog'oz. Qog'oz bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>.  
«Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.  
1.5 bosma taboq Adadi: 50 nusxa. Buyurtma №67/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash  
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

---

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.